BIZNES YURITISH MUHITINI YAXSHILASHDA IQTISODIY JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISH VA HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISHNING O‘RNI

Mirzayev Baxtiyorjon Obokulovich
Andijon davlat texnika instituti “Qurilish muhandisligi” kafedrasi, katta o‘qituvchi
E-mail: baxtiyorjon.mirzayev.3007@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy iqtisodiyotda biznes muhitining barqarorligi va shaffofligini ta’minlashda iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashishning ahamiyati tahlil qilinadi. Iqtisodiy jinoyatlar – korrupsiya, soliqdan bo‘yin tovlash, noqonuniy moliyaviy operatsiyalar va boshqalar – iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Maqolada huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati, davlat tomonidan ko‘rilayotgan choralar, profilaktik mexanizmlar va raqamli texnologiyalar orqali huquqbuzarliklarning oldini olish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: biznes muhiti, iqtisodiy jinoyatchilik, korrupsiya, huquqbuzarlik, iqtisodiy xavfsizlik, investitsion muhit, raqamlashtirish, soliq siyosati.

Аннотация: В этой статье анализируется важность борьбы с экономической преступностью в обеспечении стабильности и прозрачности деловой среды в современной экономике. Экономические преступления – коррупция, уклонение от уплаты налогов, незаконные финансовые операции и т. д.- негативно влияют на экономическое развитие. В статье освещаются вопросы деятельности правоохранительных органов, принимаемых государством мер, механизмов профилактики и предупреждения правонарушений с помощью цифровых технологий.

Ключевые слова: Деловая среда, экономическая преступность, коррупция, правонарушения, экономическая безопасность, инвестиционный климат, цифровизация, налоговая политика.

Annotation: this article analyzes the importance of combating economic crime in ensuring the stability and transparency of the business environment in the modern economy. Economic crimes – corruption, tax evasion, illegal financial transactions, etc. - have a negative impact on economic development. The article covers the activities of law enforcement agencies, measures taken by the state, preventive mechanisms and the Prevention of violations through digital technologies.

Keywords: business environment, economic crime, corruption, trespass, economic security, investment environment, digitization, tax policy.

Kirish

ISSN 3030-3907

Bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali va raqobatbardosh biznes muhitini yaratish – har bir rivojlanayotgan davlatning ustuvor vazifalaridandir. Bunda eng muhim shartlardan biri – iqtisodiy jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishdir. Bu jarayon nafaqat qonunchilik asosida kurashishni, balki iqtisodiy va ijtimoiy tizimda islohotlar olib borish zarur. Bugungi kunda iqtisodiy jinoyatlar, ayniqsa, davlat byudjetiga zarar yetkazish, firibgarlik, korrupsiya, soxta hujjatlar asosida kredit olish kabi holatlar tadbirkorlik rivojiga to‘sqinlik qilmoqda [1].

2025 yil 5 mart kuni Prezident Sh.Mirziyoyev raisligida “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashning korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalari”ga bag‘ishlangan kengaytirilgan yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. “Islohotlar yo‘lidagi eng katta to‘siq va g‘ov – bu korrupsiyadir. Buni dunyo tajribasi ham to‘liq tasdiqlaydi. Korrupsiya oqibatida jahon iqtisodiyoti yiliga 3 trillion dollar zarar ko‘rayotgani bu global xavf ekanidan dalolat”, - dedi Prezident [3].

Qurilish sohasi eng korrupsiyalashgan sohalardan biri edi. “Shaffof qurilish” dasturi joriy etilganidan keyin bu yo‘nalishda ham ijobiy o‘zgarishlar sezilmoqda. Ilgari investisiya dasturiga kirgan ob’yektlarni quradigan pudratchilar mingtaga ham yetmasdi. O‘tgan yili 13,5 mingta ob’yekt qurilishida 4 mingdan ziyod pudratchi ishtirok etdi. Soha raqamlashgani hisobiga o‘tgan 4 yilda 3,6 trillion so‘m byudjet mablag‘i tejaldi. Davlat xaridlari bo‘yicha qonun qabul qilingani, tanlov va tender raqamlashib, sog‘lom raqobat bo‘lgani uchun o‘tgan yili 14 trillion so‘m byudjet mablag‘i tejaldi. Bundan 7-8 yil avval oliygohlarga o‘qishga kirishda “tanish-bilishchilik” avj olgan edi. Soha raqamlashdi, imtihonlar onlayn translyasiya bo‘layapti. Avval test topshirib, to‘plagan balliga qarab, keyin oliygohni tanlash tizimi joriy qilindi. Oliy ta’limda 35 turdagi hujjatlarni inson omilisiz olishga o‘tilgani uchun sohadagi murojaatlar 2,2 baravar kamaydi.

Investisiya loyihalarida xalqaro korrupsiyaga qarshi standartlarni joriy etish, yirik auksion shartlarini raqobatdoshlik ekspertizasidan o‘tkazish yo‘lga qo‘yilmoqda. Shuningdek, “Shaffof qurilish” platformasi qamrovi oshirilishi, xalqaro tashkilotlar loyihalariga ham bosqichma-bosqich joriy qilinishi belgilandi. Bu ishlar xalqaro moliya tashkilotlari ishtirokidagi qurilishlarda subpudratchilarni yollash va 1 million dollargacha bo‘lgan loyihalardan boshlanadi.

“Oliygoh talaba va yoshlarning korrupsiyaga qarshi loyihalari, startap va innovasion tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash tizimini yo‘lga qo‘yishi zarur. “Korrupsiya - kelajakka tahdid” degan g‘oya asosida Yangi O‘zbekiston yoshlari qalbidan joy oladigan tizim yaratilsa, ayni muddao”, - dedi Prezident.

2025 yil 18 fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida “O‘zsuvta’minot”

ISSN 3030-3907

AJ axborot xizmati rahbari Akmal Murodov ishtirokida brifing o‘tkazildi. “Birgina o‘tgan 2024 yilda “O‘zsuvta’minot” AJning tizim tashkilotlarida 55 ta manfaatlar to‘qnashuvi holati aniqlanib, ularning barchasi belgilangan tartibda bartaraf etildi. Shunga qaramasdan hali ham sohada ko‘plab korrupsion holatlar uchramoqda [4]. 2024 yil davomida komplayens nazorati xodimlari tomonidan joylarda 555 ta nazorat tadbiri o‘tkazilgan, ularda qariyb 214 mld so‘mlik xato va kamchiliklar aniqlangan.”

1. Iqtisodiy jinoyatchilikning mazmuni va turlari.

Iqtisodiy jinoyatlar – bu mulkiy manfaat orttirish maqsadida amalga oshiriladigan, iqtisodiy munosabatlar sohasiga doir qonunbuzarliklardir. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– Soliq to‘lamaslik va soliqdan bo‘yin tovlash;
– Pul yuvish;
– Korrupsiya;
– Soxta moliyaviy hisobotlar tuzish;
– Davlat mablag‘larini maqsadsiz ishlatish.

Bunday jinoyatlar moliyaviy tizimga bevosita tahdid solib, halol raqobat va biznes yuritish sharoitlarini izdan chiqaradi.

2. Biznes muhiti va jinoyatchilik o‘rtasidagi bog‘liqlik. Iqtisodiy jinoyatchilik mavjud bo‘lgan muhitda investorlar xavf-xatarni baland deb baholaydi, natijada sarmoyalar kamayadi, yangi ish o‘rinlari yaratilmaydi va iqtisodiy o‘sish sekinlashadi. Biznes subyektlari o‘z faoliyatini shaffof va qonuniy olib borish o‘rniga, noqonuniy yo‘llar orqali foyda orttirishga harakat qiladi. Bu esa davlat imidjiga ham salbiy ta’sir qiladi.

3. Huquqbuzarliklarning oldini olishning mexanizmlari. Huquqbuzarliklarning oldini olish uchun quyidagi choralar muhim:

– Huquqiy ta’lim va targ‘ibot: Tadbirkorlar orasida qonunchilikni tushuntirish va huquqiy madaniyatni oshirish.
– Elektron nazorat tizimlari: Soliq, bojxona, kredit sohalarida avtomatlashtirilgan monitoring tizimlarini joriy etish.
– Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlari: Maxsus komissiyalar, korrupsiyani oldini olish agentliklari orqali ochiqlikni ta’minlash.
– Samarali jazo va jazoni muqarrarligi: Qonunbuzarlarning jazosiz qolmasligi.

4. O‘zbekiston tajribasi. O‘zbekistonda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, korrupsiyaga qarshi kurashish, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Misol uchun:

– Davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi
– Litsenziya va ruxsatnomalar sonining qisqartirilishi

ISSN 3030-3907

– Soliq tizimi soddalashtirilishi
– Tadbirkorlar murojaatlarini tezkor ko‘rib chiqish tizimi
– Ushbu islohotlar biznes yuritish muhitini yaxshilashda muhim rol o‘ynamoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish barqaror va sog‘lom biznes muhitini shakllantirishning muhim shartidir. Bu yo‘nalishda qonunchilikni takomillashtirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini kuchaytirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, hamda aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

1. Shavkat Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, Qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston nashriyoti. Toshkent – 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy prosessual kodeksi / Экономический процессуальный кодекс Республики Узбекистан
3. Prezident Sh.Mirziyoyev raisligida 2025 yil 5 mart kuni “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashning korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalari”ga bag‘ishlangan kengaytirilgan yig‘ilishdagi nutqi.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2025 yil 18 fevralda bo‘lib o‘tgan “O‘zsuvta’minot” AJ axborot xizmati rahbari Akmal Murodov ishtirokida brifing materiallari.
5. https://uza.uz/uz/posts/korrupciyaga-qarshi-kurashilmoqda_689611
6. https://aca.uz/uz
7. https://uza.uz/uz/posts/korrupciyaga-qarshi-kurashishda-qanday-natizhalarga-erishildi_632961

ISSN 3030-3907